



## XALQARO MEHNAT MIGRATSIYASIDA YUQORI MALAKALI MUTAXASSISLARNI TASNIFLASH TENDENSIYALARI

**Habibullayev Komiljon**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*ORCID: 0009-0004-2282-6214*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada olimlarning ilmiy tadqiqotlari va tahlillari natijasida yuqori malakali migrantlarga berilgan ta'riflari muhokama qilingan. Nazariy va iqtisodiy-siyosiy amaliyotda yuqori malaka va mahoratni aniqlash muammolariga ahamiyat qaratildi.

**Kalit so'zlar:** yuqori malakali migrantlar, mehnat muhojirlari, iste'dodlar, mahorat.

## ТЕНДЕНЦИИ КЛАССИФИКАЦИИ ВЫСОКОКВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ В МЕЖДУНАРОДНОЙ ТРУДОВОЙ МИГРАЦИИ

**Хабибуллаев Комилжон**

*Ташкентский государственный университет Востоковедения*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются определения, данные высококвалифицированным мигрантам в результате научных исследований и анализа ученых. Особое внимание было уделено проблемам определения высокой квалификации и умений в теоретической и экономико-политической практике.

**Ключевые слова:** высококвалифицированные мигранты, трудовые мигранты, таланты, навыки.

## TRENDS IN THE CLASSIFICATION OF HIGHLY QUALIFIED SPECIALISTS IN INTERNATIONAL LABOR MIGRATION

**Khabibullaev Komiljon**

*Tashkent State University of Oriental Studies*

**Abstract.** This article discusses the scientific theoretical definitions given by scientists to highly skilled migrants. Particular attention was paid to the problems of determining high qualifications and skills in theoretical and economic-political practice.

**Keywords:** highly qualified migrants, trudovye migrants, talents, skills.

### **Kirish.**

So'nggi bir necha o'n yilliklarda malakali migrantlar xalqaro migratsiya oqimining, xususan rivojlangan mamlakatlar uchun borgan sari muhim elementiga aylanib bormoqda. Yuqori malakali mutaxassislarining xalqaro migratsiyasi – hozirgi kundagi dolzarb savollardan biri bo'lib, iqtisodchi, siyosatchi va ishbilarmonlarni ham o'ziga jalb qilmasdan qolmagan. Shu o'rinda, qimmatbaho ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxslarning xalqaro migratsiyaga moyilligi yuqori bo'ladi. Ushbu hodisani o'rganishda ko'plab iqtisodchi, sotsiolog, tarixchi, huquqshunos va psixologlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Yuqori malakali migrantlarning yagona, kelishilgan ta'rifi mavjud emas. Ushbu konsepsiya kim tomonidan yuritilayotganiga qarab o'zgarishini ko'rish mumkin, iqtisodchilar sotsiologlardan farqli, jarayoning iqtisodiy mexanizmlarini talqin etgan ta'riflarni afzal ko'rsa, siyosatchilar esa boshqa nuqtai nazarga ega bo'lishi mumkin. Shu jihatdan olganda ham, tadqiqot mavzusi dolzarb bo'lib, yuqori malakali mutaxassislar va ularning mehnat migratsiyasiga nisbatan yagona ta'rifni keltirish imkonini beradi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Yuqori malakali migrantlar – bu bir mamlakatdan boshqa mamlakat chegarasini kesib o'tgan muayyan ta'lim darajasi yoki kasbiy mahoratga ega mutaxassislardir. Ularning migratsiyasi qabul qiluvchi mamlakatlarning iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Asosan ularning bilim va ko'nikmalari innovatsiyalar o'sishi va fan, texnologiya, tibbiyot kabi sohalarning o'sishiga turtki bo'ladi.

So'nggi yillarda migratsiya iqtisodiyoti sohasida migratsiyaning keng ta'siri va bu jarayonlarda yuqori malakali migrantlarning muammolarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar tez sur'atlar bilan o'sib borishini kuzatish mumkin.

Miyalar sizib chiqib (iste'dodlar) ketishi savollariga qiziqqan iqtisodchilar, xalqaro malakali migratsiya ma'lumotlar to'plamidan foydalangan holda, yuqori malakali immigrantlar o'rta ta'limdan keyingi yoki oliy ta'lim ma'lumotiga ega bo'lgan chet elda tavallud topgan ishchilar sifatida Carrington va Detragiache tomonidan qarashlar mavjud (Carrington and Detragiache, 1998).

Parsonning fikricha, yuqori malakali migrantlar odatda yaxshi haq to'lanadigan ishlarda faoliyat yuritadilar va past malakali migrantlarga nisbatan yuqori harakatchanlik ko'rsatgichga egalardir (Parsons et al., 2020).

Agneshka Veynerning ta'kidlashicha, yuqori malakali migrantlarni aniqlashda ilmiy adabiyotlar migratsiya oqimining mehnat bozoriga yo'naltirilishida ta'lim, malaka va daromad asosiy mezonlari kabi ko'p jihatdan foydalaniladi (Weinar, Klekowski and Imiscoe, no date).

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Tadqiqot ishida yuqori malakali migratsiya oqimlarini tahlil qilish, tipologiyalarini muhokama qilish, malakali muttaxassislar xalqaro migratsiyada nazariy jihatdan tasniflanishi ko'rib chiqish va ilmiy xulosalar berishdan iborat.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Yuqori malakali migrantlar kimlar? Tadqiqotlarga ko'ra, yuqori malakali mutaxassislarning migratsiyasi ya'ni ma'lum xususiyatlarga ega bo'lgan va shuning uchun ma'lum bir toifadagi viza olish huquqiga ega bo'lgan chet ellik ishchilarni nazarda tutadi.

Yuqori malakali mutaxassislarni o'rganadigan olimlar odatda ma'lumotlarga asoslangan holda ta'riflaydilar. Yuqori malakalarni baholashda eng aniq nuqta bu ta'lim darajasi (Borjas, 2005; Peri and Sparber, 2011) yoki kasbiy mahorat (Bouvier and Simcox, 1995). Iqtisodchilar ko'pincha tahlil uchun ma'lumotlarni ixchamlashtirgan holda, yuqori malakali migrantlar oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslardir deb yuritishadi.

Louellning ta'kidlashicha, oliy ta'lim bu "eng qulay xalqaro statistika" bo'lgani uchun u yuqori malakali mutaxassislar uchun asosiy standart ko'rsatkichga aylangan (Lowell, 2005). Iqtisodchilar tomonidan ta'lim darajasiga qaratilgan ushbu yondashuv keng qo'llanilinadi, o'z o'rnida migrantlarni toifalashda, ular orasidadan yuqori malakali mutaxassislarni aniqlashni osonlashtiradi. Miyalar tark etishi, aqllar sizib chiqib ketishi bo'yicha savollar bilan shug'illangan iqtisodchi tadqiqotchilar, xalqaro malakali migratsiya ma'lumotlar to'plamidan foydalangan holda, malakali migrantlarni chet elda tug'ilgan, universitet yoki o'rta ta'limdan keyingi ta'limga ega deb tasniflaydilar (Carrington and Detragiache, 1998; Adams, 2003; Docquier and Marfouk, 2006).

## 1-jadval

## Yuqori malakali migrantlarga berilgan ta'riflar

Olim/mamlakat	Berilgan ta'rif
Niderlandiya	"Kennismigrant" (KM) atamasi gollandiyalik kennismigrant so'zidan tarjima bo'lib, "bilimga ega muhojir", inglizcha "knowledgemigrant", shuningdek, "yuqori malakali migrant" deb ham ataladi. Boshqacha aytganda, yuqori malakali mutaxassis.
V.I.Mukomel	65 yoshgacha bo'lgan, barcha oliy yoki to'liq tamomlanmagan oliy ma'lumotga ega bo'lgan chet el fuqarolari yuqori malakali migrantlar deb yuritiladi.
E.D.Rubinskaya	"Мигранты профессионалы" atamasi uchta kichik guruhni o'z ichiga oladi: malakali xorijiy mutaxassislar, yuqori malakali xorijiy mutaxassislar, ekstramalakali xorijiy mutaxassislar. Barcha kategoriyalarni umumiy qilib aytganda, yuqori malakali migrantlar deb ko'rish mumkin.
R.Iredale	Muallif tomonidan ta'riflanganidek, yuqori malakali migrantlar – bu oliy ma'lumotga ega yoki muayyan sohada katta ish tajribasiga ega chet el fuqarolari. Ular ko'pincha yuqori maoshli yoki eng daromadli ishlarni bajaradilar va ularning harakatlari iqtisodiyot rivojlanishiga ulkan xissa qo'shadi
M.Xertsog, L.Sandoz	Ba'zi mualliflar yuqori malakaga ega migrantlarni "qidiruvdagi migrantlar" deb atashgan.
J.S.Ribeiro	Ribeironing tadqiqotiga ko'ra yuqori malakali migrantning tan olinishi nafaqat uning malakasiga, balki qabul qiluvchi mamlakatning siyosatiga ham bog'liq.
Oleribe OO	Yuqori malakali immigrantlar – oliy ma'lumotli mutaxassis maqomiga ega yoki muayyan muammoni yechish, yangi mahsulot yaratish va mavjud tizimni yaxshilashga zarur noyob ko'nikmalarga ega bo'lganlar deb ta'riflaydi.
P.Triadafilopoulos	Yuqori malakali migrantlar yuqori maosh oladigan, zarur ko'nikmalarga ega bo'lgan va oson integratsiyalashadigan odamlardir. Ular to'g'risida "istalgan" migratsiya oqimi ham deb ta'rif berib o'tgan.

Biroq, belgilangan mamlakat istiqboli turli xil tasniflar va ma'lumotlarni talab qiladi. Ko'pgina olimlar OECD tomonidan taklif etilgan ta'riflardan foydalanadilar, odatda ular ta'lim darajasini kasb bilan bog'lab yuborishadi (Weinar, Klekowski and Imiscoe, 2020). 1990-yillarda OECD yuqori malakali deganda shaxsning ma'lum bir sohada oliy ma'lumotga ega yoki shu sohaga ekvivalent ish tajribasi bor ekanligini bayon etishgan. O'sha yillarda "yuqori malakali mutaxassislar, mustaqil rahbarlar va yuqori darajali menejerlar, ixtisoslashgan texniklar yoki treyderlar, investorlar, ishbilarmonlar, asosiy ishchilar va subpudratchilar" dan iborat bo'lishgan.

Ta'kidlab o'tish joiz, aksariyat mamlakatlar yuqori malakali immigrantlarni ta'lim darajasi va kasb-hunar nuqtai nazaridan ham o'lchaydilar.

Boshqa tomondan qaralsa, davlat siyosati tadqiqotchilari yuqori malakali ishni "mahorat" tushunchasi orqali kontseptsiyalashtiradilar. Bu afzallik yuqori malakali migrantlarga, ayniqsa, muayyan bilim va malakalarga ega bo'lgan shaxslarga nisbatan aniq utilitar nuqtai nazarga mos keladi, ko'pgina tadqiqotchilar ularni "mahorat" yoki "inson kapitali" deb atashadi (Mahroum, 1999; Dzvimbo, 2003).

Yuqori malakali migrantlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishning yana bir usuli – ish haqi miqdoridan kelib chiqib malaka va ta'lim ko'ratkichi sifatida foydalanish mumkin. Jorj Borjas ushbu kontseptsiyani muhojirlar va huddi shunday ko'nikmalarga ega mahalliy aholi mamlakat mehnat bozorida ideal o'rinbosar ekanligini ta'kidlab o'tgan (Borjas, 2005). Shuningdek, u ko'nikmalarni daromad darajasi bilan o'lchash usulini taklif qilgan birinchi olimlardan bo'lgan. U ma'lum darajadagi daromad chegarasini belgilash va yuqori malakali migrantlar bu chegaradan yuqori bo'lganlar qatorida bo'lishini taklif qildi. Borjasning fikricha, o'xshash malakaning qiymati barcha mamlakatlarda bir xil ko'rsatkichda aks etadi, ish beruvchilar har

doim ushbu malakali ishchilarning sof qiymatini tan olishda qo'l keladi, bu esa o'z o'rnida ma'lumotlar to'plamini solishtirishga imkon beradi (Borjas, 1987).

Immigrantlar toifalari davlat manfaatlari bilan ham aniqlanadi: mehnat bozorining hozirgi ehtiyojlari, shuningdek, boshqa iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bilan belgilanadi. Ko'pgina olimlar "yuqori malakali" so'zi yillar davomida istalgan, uzluksiz migratsiya bilan sinonimga aylanganligini ta'kidlaganlar (Beaverstock, 2005; Bielewska, 2021). Kuzatishlarga qaraganda, ma'lum bir mamlakatga ta'lim darajasi bilan belgilanadigan malakali viza orqali kirganlar, ko'pincha integratsiya jarayonlarida kamroq qiyinchiliklarga duch kelishadi va farovonlik jihatidan mamlakatga kamroq yuk bo'ladilar deb qaraladi.

Eng asosiysi jamoatchilik vakillari malakali muhojirlar mehnat bozoridagi bo'shliqni to'ldiradi, uy ishchilari o'rniga o'tishlari ehtimoli kamroq va shuning uchun to'g'ridan-to'g'ri raqobat tug'dirmaydi deb qarashadi (Kerr et al., 2016).

Mualliflar nutqlarining izchil elementlaridan biri shundaki, "mahoratlar" aniq belgilangan va "malakasiz" yoki "past malakali" mehnat migratsiyasidan farqlashda qiyinchilik tug'dirmaydi degan fikrni ilgari surishganligini ko'rishimiz mumkin.

Aslida "malakali" atamasi kollej yoki universitet darajasidan ko'ra kengroq yoki torroq tushunchaga ega bo'lishi mumkin. Masalan, qabul qiluvchi mamlakatga qarab, sport ustalari va san'atkorlar asosan yuqori malakali hisoblanadilar, biroq ular yuqori ta'lim darajasiga ega bo'lishi shart emas. Eng muhimi, ta'lim darajasi bilan belgilanadigan "yuqori malakali" atamasi kasbiy ta'limga ega bo'lgan ko'plab o'z sohasida mahoratli shaxslarni istisno qiladi: misol tariqasida bu payvandchilar yoki tibbiyot xodimlarining ayrim toifalariga tegishli bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, yuqorida ta'kidlab o'tgan kasblar ko'plab mehnat immigratsiya dasturlariga jalb qilingan migrantlar ro'yxatida yuqori o'rinni egallaydi (Green & Green, 1995; Beach, Green & Worswick, 2007; Walsh, 2008).

Solimano malakalarni xalqaro professional mehnat bozorlaridagi talablarga qarab tasniflash taklifini berdi. Ushbu ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxslar iste'dodlar ovining asosiy maqsadi bo'lib, o'zlariga qulay bo'lgan joylarga ko'chib o'tishga moyilligini anglatadi. Shunday qilib, dunyo bo'ylab yuqori malakaga ega odamlarni o'ziga jalb qilmoqchi bo'lgan siyosatchilar va ishbilarmonlar ularni doimiy immigrantlar sifatida ko'rishmasligi mumkin, balki vaqtinchalik rezidentlar ka'bi ko'rishadi. Solimanoning taklifi bo'yicha malakali muhojirlar quyidagi toifalardan biriga kiradi (Solimano, 2008):

1. (a)

Tadbirkorlar, muhandislar va texniklar kabi to'g'ridan-to'g'ri unumdor iste'dodlar sifatida ko'rilgan odamlar. Yuqorida ta'kidlab o'tilganlar tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga oid faoliyatda bevosita ishtirok etadilar.

2. (b)

Akademik iste'dodlar sifatida aniqlangan odamlar, ya'ni olimlar, tadqiqotchilar, tadqiqot rahbarlari. Ular universitetlarda, tadqiqot markazlarida va tahlil markazlarida faoliyat yuritadilar, qimmatli mahsulotlar va resurslarga aylantirilishi mumkin bo'lgan ilmiy hamda akademik bilimlarni ishlab chiqarish yoki o'zlashtirish bilan shug'ullanadilar.

3. (c)

Ijtimoiy sohalardagi iste'dodlar sifatida belgilanadi. Ularga shifokorlar, hamshiralar va o'qituvchilar kiradi. Bu iste'dodlar sog'liqni saqlash yoki ta'lim kabi muhim ijtimoiy xizmatlarni taqdim etishda bevosita ishtirok etadilar.

Solimanoning taklifi asosan yuqori malakali va malakali mutaxassislariga qaratilgan immigratsiya dasturlarining joriy tuzilishini o'zida aks ettiradi.

Yuqori malakali muhojirlar boshqa (ya'ni kam malakali) muhojirlarga nisbatan erkinroq harakatlanishi mumkin (Callister et al., 2006; Favell, 2009; Geddes, 2016). Xususan, ularning oqimlari uzluksiz va qulaydir, ko'payib borayotgan harakatchanlik ularni boshqa barcha muhojirlardan ajratib turadigan asosiy xususiyatdir.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, OECD o'zining yuqori malakali migratsiya bo'yicha nashriga xalqaro talabalar bo'limini kiritgan (Tremblay, 2002). 2002 yilda bu yondashuv, jumladan, xalqaro talabalarni yuqori malakali migrantlar sifatida qabul qilish juda keng tarqalgan yondashuv edi. Bir mamlakatga kirish uchun xalqaro chegaralarni kesib o'tgan xalqaro talabalar malakali ishchilarni jalb qilish siyosatining maqsadlariga aylanishdi. Biroq, kasbiy tajribasi yoki hatto ish haqi bilan o'lchanishidan qat'i nazar, ular yuqori malakali migrantlar emas. Aksincha, ularning yuqori malakali muhojirlar toifasiga kiritilishi, ular o'qishni tugatgandan so'ng ushbu mamlakatda qolish ehtimolini ilgari suradi (Kuptsch, 2006).

Shunday qilib, xalqaro talabalar berilgan ta'rifi bo'yicha malakali xisoblanadilar, chunki ular yaqin kelajakda yuqori malakali bo'lish potentsiali ko'zda tutilgan bo'ladi degan fikr mavjud. Agar ular o'qishlari uchun pul to'lab, borgan mamlakatlarida yuqori malakali sohalarida o'zlarini namoyon qilsalar, o'ylashimizcha, muhojirlar uchun ham, qabul qiluvchi mamlakat uchun ham ijobiy baholanadi.

Shuningdek, ko'plab mualliflar xalqaro talaba sifatidagi tajriba o'qishni tamomlagandan so'ng yuqori malakali migrant bo'lish ehtimoli moyilligini o'z ishlarida ko'rsatdi (Koser and Salt, 1997; Salt, 1997; Cairns, 2017). Xususan, ularning ba'zilari ta'kidlashicha, xalqaro talabalar tomonidan yaratilgan tarmoqlar yuqori malakali immigratsiyani oshirishga yordam beradi, chunki ular o'zlarining vatanidagi hamkasblari va do'stlarini chegara kesib o'tishini qo'llab-quvvatlaydilar. Shunday qilib, malakali ishchi kuchining aylanmasi qisman bo'lsada chet ellik talabalar bilan ham bog'liq (Koser and Salt, 1997; Khadria, 2001; Gribble, 2008).

### Xulosa va takliflar.

Yuqorida ko'rsatganimizdek, yuqori malakalarning ta'riflari turlicha. Ular asosan siyosiy ehtiyojlarni qondirish uchun foydalaniladigan ma'muriy ma'lumotlarga asoslanganligini ko'rish mumkin.

Yuqori malakali migrantlarni aniqlash mumkinligi to'g'risida munozaralar, hozirda asosan ko'nikmalar, ishga joylashish masalasi va ta'lim darajasi atrofida keng aylanmoqda. Ushbulardan kelib chiqqan holda, yuqori malakali migrantlar ta'rifi kontekstga va muayyan mavjud ehtiyojga moslashtirilishi mumkin.

Kerr ta'kidlaganidek (Kerr, 2013) kengroq tushunchaga ega bo'lish uchun ushbu bo'yicha adabiyotlar muhim, tadqiqot bazasi ham havas qilarli darajada deb bo'lmaydi. Kelajakdagi tadqiqotlar uchun birinchi ustuvor vazifalardan biri bu ushbu yo'nalishda tadqiqotlarni sonini ko'paytirish deb o'ylaymiz.

### Adabiyotlar / Лумепамыпа / Reference:

Adams Jr, R.H. (2003) 'International migration, remittances, and the brain drain: A study of 24 labor-exporting countries', *Remittances, and the Brain Drain: A Study of*, 24.

Beach, C.M., Green, A.G. and Worswick, C. (2007) 'Impacts of the point system and immigration policy levers on skill characteristics of Canadian immigrants', in *Immigration*. Emerald Group Publishing Limited, pp. 349–401.

Beaverstock, J. V (2005) 'Transnational elites in the city: British highly-skilled inter-company transferees in New York city's financial district', *Journal of ethnic and migration studies*, 31(2), pp. 245–268.

Bielewska, A. (2021) 'Game of labels: Identification of highly skilled migrants', *Identities*, 28(5), pp. 615–633.

Borjas, G.J. (1987) 'Immigrants, minorities, and labor market competition', *ILR Review*, 40(3), pp. 382–392.

Borjas, G.J. (2005a) 'The labor-market impact of high-skill immigration', *American Economic Review*, 95(2), pp. 56–60.

Bouvier, L.F. and Simcox, D. (1995) 'Foreign-born professionals in the United States', *Population and Environment*, pp. 429–444.



- Cairns, D. (2017) 'Exploring student mobility and graduate migration: undergraduate mobility propensities in two economic crisis contexts', *Social & Cultural Geography*, 18(3), pp. 336–353.
- Callister, P. et al. (2006) *Globalisation, gendered migration and labour markets*. Department of Labour.
- Carrington, W.J. and Detragiache, E. (1998) 'How big is the brain drain?'
- Docquier, F. and Marfouk, A. (2006) 'International migration by education attainment, 1990–2000', *International migration, remittances and the brain drain*, pp. 151–199.
- Dzvimbo, K.P. (2003) 'The international migration of skilled human capital from developing countries', in *A case study prepared for a Regional Training Conference on Improving Tertiary Education in Sub-Saharan Africa: Things That Work*, pp. 23–25.
- Favell, A. (2009) 'Immigration, migration, and free movement in the making of Europe', *European identity*, pp. 167–189.
- Geddes, A. (2016) 'The politics of migration and immigration in Europe'.
- Green, A.G. and Green, D.A. (1995) 'Canadian immigration policy: The effectiveness of the point system and other instruments', *Canadian Journal of Economics*, pp. 1006–1041.
- Gribble, C. (2008) 'Policy options for managing international student migration: the sending country's perspective', *Journal of Higher Education Policy and Management*, 30(1), pp. 25–39.
- Kerr, S.P. et al. (2016) 'Global talent flows', *Journal of Economic Perspectives*, 30(4), pp. 83–106.
- Kerr, W.R. (2013) *US high-skilled immigration, innovation, and entrepreneurship: Empirical approaches and evidence*. National Bureau of Economic Research.
- Khadria, B. (2001) 'Shifting paradigms of globalization: the twenty-first century transition towards generics in skilled migration from India', *International migration*, 39(5), pp. 45–71.
- Koser, K. and Salt, J. (1997) 'The geography of highly skilled international migration', *International Journal of Population Geography*, 3(4), pp. 285–303.
- Kuertsch, C. (2006) 'Students and talent flow—the case of Europe: From castle to harbour', *Competing for global talent*, pp. 33–61.
- Lowell, B.L. (2005) 'Policies and regulations for managing skilled international migration for work', *United Nations, Mortality and Migration Section of the Population Division/DESA*, pp. 1–21.
- Mahroum, S. (1999) 'Highly skilled globetrotters: the international migration of human capital', in *Proceedings of the OECD workshop on science and technology labour markets, DSTI/STP/TIP (99)*. Citeseer, pp. 168–185.
- Parsons, C.R. et al. (2020) 'High skilled migration through the lens of policy', *Migration Studies*, 8(3), pp. 279–306.
- Peri, G. and Sparber, C. (2011) 'Highly educated immigrants and native occupational choice', *Industrial Relations: a journal of economy and society*, 50(3), pp. 385–411.
- Salt, J. (1997) 'International movements of the highly skilled'.
- Solimano, A. (2008) *The international mobility of talent: Types, causes, and development impact*. Oxford University Press, USA.
- Tremblay, K. (2002) 'Student mobility between and towards OECD countries: a comparative analysis', *International mobility of the highly skilled*, pp. 39–67.
- Walsh, J. (2008) 'Navigating globalization: Immigration policy in Canada and Australia, 1945–2007 1', in *Sociological Forum*. Wiley Online Library, pp. 786–813.
- Weinar, A., Klekowski von Koppenfels, A. (2020). *Highly-Skilled Migrants in the Transatlantic Space: Between Settlement and Mobility*. In: *Highly-Skilled Migration: Between Settlement and Mobility*. IMISCOE Research Series. Springer, Cham. [https://doi.org/10.1007/978-3-030-42204-2\\_4](https://doi.org/10.1007/978-3-030-42204-2_4)